O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK 9(575.1):61:34

Sanjarbek DJUMANOV,
PhD, katta ilmiy xodim, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Samarqand, O‘zbekiston
E-mail: sanjar.djumanov@bk.ru, ORCID: 0000-0002-6671-8264

Dotsent O‘.Mattiyev taqrizi asosida

IMPROVEMENT OF THE LEGAL FRAMEWORK OF THE HEALTHCARE SYSTEM IN NEW UZBEKISTAN

Annotation

During independence years, large scale reforms were carried out in health care system. From 2016 these reforms were raised to e new level. The improvement of legal bases of system became important in this process. This article is devoted improvement of law bases of health care system and their result.

Key words: Law “On health protection of citizens”, Decree of President, union of medicine, much profile medical centers, law bases of system, international relations, Call-centers.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАВОВЫХ ОСНОВ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В годы независимости в Узбекистане проведены широкомасштабные реформы в системе здравоохранения. С 2016 года эти реформы были подняты на новый уровень. При этом основное значение имеет совершенствование правовых основ данной сферы. В статье рассматриваются вопросы совершенствования правовых основ системы здравоохранения в Узбекистане и результаты этого процесса.

Ключевые слова: Закон “О здравоохранеии граждан”, Указ Президента, медицинское объединение, многопрофильный медицинский центр, правовые основы сферы, международное сотрудничество, Call-центры.

YANGI O‘ZBEKISTONDA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMI HUQUQIY ASOSLARINING TAKOMILLASHTIRILISHI

Annotatsiya

Mustaqillik yillarida sog‘liqni saqlash sohasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. 2016-yildan boshlab mazkur islohotlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Bunda esa, o‘z navbatida soha huquqiy asoslarining takomillashtirilishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Mazkur maqola sog‘liqni saqlash sohasi huquqiy asoslarining takomillashtirilishi va uning natijalariga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi Qonun, Prezident Farmoni, tibbiyot birlashmasi, ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi, soha huquqiy asoslari, xalqaro hamkorlik, Call – markazlar

Kirish. O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash sohasi taraqqiyotida uning huquqiy asoslarining yaratilishi va takomillashtirilishi muhim ahamiyatga egadir. Mustaqillik yillarida sog‘liqni saqlash sohasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida aholi salomatligini saqlashning yangilangan tizimi shakllantirildi. Mazkur tizim faoliyati natijasida eng zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda davolash usullari keng miqyosda rivojlandi. Ammo, shunga qaramasdan, mazkur sohaning rivojlanishiga xalaqit beruvchi bir qancha omillarning hozirga qadar saqlanib qolayotganligi hech kimga sir emas. Bunday muammolar esa soha huquqiy asoslari yo‘nalishida ham kuzatildi. Shu sababdan, tizim huquqiy asoslarining takomillashtirilishi jarayonini yoritish va uni ilmiy tahalil qilish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yangi O‘zbekistonda Sog‘liqni saqlash tizimi huquqiy asoslarining takomillashtirilishi borasidagi ma’lumotlar ko‘plab davriy nashrlar va rasmiy saytlarda qayd etilgan. Xususan, “Xalq so‘zi” gazetasining 2017-yil 8-fevraldagi sonida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni e’lon qilingan bo‘lsa, xuddi shu gazetaning 2017-yil 1-apreldagi sonida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori chop etilgan. Mazkur nashrlarda yuqorida nomlari keltirilgan Farmon va Qarorlar nafaqat e’lon qilingan, balki u bilan bog‘liq ayrim qo‘shimcha ma’lumotlar ham taqdim etilgan.

Shu bilan birga, sog‘liqni saqlash sohasini rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami va Sog‘liqni saqlash vazirligi rasmiy saytlarida ham ko‘plab e’lon qilingan. Ammo ushbu ma’lumotlar keng ommaga mo‘ljallangan bo‘lib, alohida tahlil qilinmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani tayyorlash jarayonida umumqabul qilingan tarixiy metodlar – ilmiylik, xolislik, tarixiylik, qiyosiy tahlil va ketma-ketlik tamoyillariga amal qilindi.

Tahlil va natijalar. Mustaqillik yillarida aholining sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishi 1996-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi Qonuni bilan mustahkamlandi [2:1]. Ushbu Qonunni amaliyotga tadbiq etish maqsadida 1998-yil 10-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni e’lon qilindi [8]. Ushbu Farmon zamonaviy talablarga javob beradigan va Respublikaning barcha hududlarida aholiga malakali xizmat ko‘rsatadigan yaxlit tizimni shakllantirishda muhim omil bo‘ldi. Ammo, shunga qaramasdan, soha taraqqiyotiga halal beruvchi bir qancha omillarning saqlanib qolayotganligi tizim faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarish vazifasini kun tartibiga qo‘ydi.

Soha taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning

saylovoldi dasturida ham nazarda tutilgan edi. Shu bilan birgalikda, Prezidentimizning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqida ham bu boradagi vazifalar e’lon qilindi. Jumladan, Prezidentimiz “Biz uchun bebaho boylik bo‘lgan inson salomatligini asrash maqsadida sog‘liqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning birlamchi bo‘g‘inidagi bo‘linmalari va qishloq vrachlik punktlarining faoliyatini tubdan takomillashtirish, tez tibbiy yordam va yuqori texnologiyalar asosida xizmat ko‘rsatadigan, ixtisoslashgan maxsus markazlarni yanada rivojlantirish yuzasidan chora tadbirlar kompleksini amalga oshirish Hukumatning e’tibor markazida bo‘lishi darkor” [1:2] deya aytib o‘tgan edi. Ushbu vazifalarning kun tartibiga qo‘yilishi soha huquqiy asoslarini takomillashtirishni talab qildi. Shu sababdan ham mazkur tadbirlarning amalga oshirilishi uchun soha huquqiy asoslarini takomillashtirish ishlari boshlandi. Jumladan, “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni e’lon qilindi [4:1]. Mazkur hujjatning to‘rtinchi yo‘nalishi “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari”ga bag‘ishlangan bo‘lib, uning “Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish” deb nomlangan 2-bandida aholi salomatligini asrash borasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlar ro‘yxati keltirildi [7]. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun 78 ta tuman tibbiyot birlashmasini, 7 ta shahar va 2 ta viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazini qayta qurish, tez tibbiy yordam xizmatini 1200 ta maxsus avtotransport bilan ta’minlash rejalashtirildi [4:2].

2017-yilda sohaning huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan qator hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Shoshilinch tibbiy yordamni yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida” (2017-yil 16-mart)gi Farmoni, shuningdek, “Dori vositalarini va tibbiyot buyumlarini sotish, farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (2017-yil 14-fevral), “Sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (2017-yil 1-aprel) [6:1-2], “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasida onkologiya xizmatini yanada rivojlantirish va aholiga onkologik yordam ko‘rsatishni takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida” (2017-yil 4-aprel), “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga 2017-2021-yillarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”(2017-yil 20-iyun), “Aholini dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta’minlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” (2017-yil 17-iyul), “2018-2022-yillar davrida bolalarda tug‘ma va irsiy kasalliklarni barvaqt aniqlash Davlat dasturi to‘g‘risida” (2017-yil 25-dekabr), “O‘zbekiston Respublikasida odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik tarqalishiga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (2018-yil 25-yanvar), “Shoshilinch tibbiy yordam tizimini jadal takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”(2018-yil 25-yanvar)gi Qarorlari e’lon qilindi.

Hukumat tomonidan qabul qilingan yangi Farmon va qarorlar zamon talablari asosida ishlab chiqildi va oldingisidan ko‘ra aniqlik darajasining yuqoriligi bilan muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yilda e’lon qilingan “Tez tibbiy yordam ko‘rsatish tizimi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarorida [10] nazarda tutilmagan jihatlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yildagi “Shoshilinch tibbiy yordamni yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida [9] o‘z aksini topdi. 2018-yilda qabul qilingan “Shoshilinch tibbiy yordam tizimini jadal takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarorida [11] esa ushbu tizimni rivojlantirishning eng muhim yo‘nalishlari, tez tibbiy yordam xizmati sifati va natijadorligini oshirish, shoshilinch tibbiy yordam sohasida ilmiy tadqiqotlar doirasini kengaytirish, shuningdek, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash chora – tadbirlari belgilandi. Jumladan, shu kunga qadar Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi asosan, tez tibbiy yordam ko‘rsatishga ixtisoslashgan muassasa bo‘lib kelgan edi. Lekin, afsuski, bu tizimda eng yangi ilmiy tadqiqotlar olib borilishi jarayoniga yetarli e’tibor berilmadi. Mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida Prezident Farmonining 3-bandiga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi deb qayta nomlandi [9] va uning faoliyatida shu soha bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilishi belgilandi. Shu bilan birga, hozirgi kunda tez tibbiy yordam brigadalari tomonidan bajarilayotgan chaqiriqlarning 30 foizi inson hayotiga xavf tug‘dirmaydigan surunkali kasalliklar bo‘yicha bajarilayotgani aniqlandi [5]. Shu sababdan, 103 telefon raqami orqali tushayotgan har bir chaqiriqni, uning ustuvorlik va shoshilinchlik darajasidan qat’iy nazar, so‘zsiz bajarish qoidasiga asoslangan va shu kunga qadar o‘zini oqlamagan tashkiliy tuzilmaning bartaraf etilishi, barcha tez tibbiy yordam stansiyalari qoshida tez tibbiy yordamni chaqirishga mo‘ljallangan tunu kun ishlaydigan, yagona telefon raqamining uzluksiz faoliyatini ta’minlaydigan Call – markazlar tashkil etilishi belgilandi [5].

2019-yilda jahonda yuz bergan koronavirus pandemiyasi bilan bog‘liq vaziyat dunyo mamlakatlari qatori mamlakatimizda ham sog‘lom hayot kechirish darajasi yetarli emasligini ko‘rsatdi. Mazkur kasallik ayniqsa yurak qon-tomir va nafas olish yo‘llari hamda semizlik (ortiqcha vazn) kasalligiga chalingan insonlar salomatligiga ta’sir ko‘rsatdi. Pandemiya davrida mamlakatda amalga oshirilgan profilaktik tadbirlarga qaramay, karantinga olingan fuqarolar orasidan kasallanganlar soni oshib bordi. Jumladan, 2020-yilning 4-aprel holatiga ko‘ra koronavirus kasalligiga chalinganlar soni 221 taga yetgan bo‘lsa [12], 15-aprelga kelib bu raqam 1214, oradan besh kun o‘tib esa 1565 nafarni tashkil qildi [13]. Natijada, pandemiya sababli ko‘plab insonlar hayotdan ko‘z yumdi. Shu va boshqa omillar sog‘lom turmush tarzini kundalik hayot tarziga aylantirish masalasini kun tartibiga qo‘ydi.

Shu maqsadda 2020-yil 30-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni [14] e’lon qilindi. Hujjatda sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari belgilab berildi. Aholi orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishda yurish, yugurish, mini futbol, velosport, badminton, stritbol, “Workout” (mahalla va ko‘cha fitnesi) sportning asosiy turlari etib belgilandi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, hujjatda Qurilish vazirligiga ham tegishli vazifalar yuklatildi. Aholi soni va uy-joylar joylashuvini hisobga olgan holda, shuningdek, tashkilot va idoralarning tegishli hududlarida velosiped turar joylari va zamonaviy sport maydonchalarini tashkil etish, turli hududlarni bog‘lovchi avtomobil yo‘llari yonida piyoda hamda velosiped yurishi uchun mo‘ljallangan “Salomatlik yo‘laklari”ni qurish, avtomobil harakati yuqori bo‘lgan va katta yo‘l kesishmalarida aholiga qulay o‘tish joylarini barpo etish kabilar shular jumlasidandir [14]. Qarordagi mazkur bandlar aholi orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va uni amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Keyingi yillarda ham sog‘liqni saqlash sohasidagi tub islohotlarni yangi bosqichga ko‘tarish uchun zarur bo‘lgan huquqiy hujjatlar qabul qilish ishlari amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-mayda qabul qilingan “Sog‘liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bu borada muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Mazkur qaror asosida birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalarida dori va tibbiy buyumlar uchun ajratilgan mablag‘ miqdori o‘rtacha 3 baravarga oshirildi. Sog‘liqni saqlash boshqarmalarida boshliqning raqamlashtirish va davlat-xususiy sheriklik bo‘yicha o‘rinbosari lavozimi joriy qilindi. Shuningdek, tuman (shahar) hamda barcha viloyat va respublika davolash-profilaktika muassasalarida IT operator lavozimi joriy etilishi belgilandi [15].

So‘nggi yillarda farmatsevtika sohasini yanada rivojlantirishga alohida e’tibor berildi. Bu borada ham soha huquqiy asoslarini takomillashtirish ishlari olib borildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 29-noyabrda qabul qilingan “Tibbiyot muassasalarini farmatsevtika mahsulotlari va tibbiy jihozlar bilan ta’minlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori [16] bu borada muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Hujjatda dori vositalari va tibbiy buyumlarga bo‘lgan ehtiyojni hisoblash hududdagi kasallanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha bemorlar soni, bir bemorga talab etiladigan kunlik miqdor, davolash kursining davomiyligi, shuningdek, mavjud zaxira va demografik holatning hisobga olinishi belgilandi. Original dori vositalari, yopiq turdagi laboratoriya uskunasi uchun maxsus reagent, reaktiv vva sarflov vositalari, shuningdek, shoshilinch va tez tibbiy yordam ko‘rsatish uchun zarur dori vositalari va tibbiy buyumlarning davlat xaridini to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar asosida amalga oshirishga ruxsat berildi. Shu bilan birga, to‘g‘ridan to‘g‘ri sotib olinadigan bunday vositalarning shoshilinch tez tibbiy yordam ko‘rsatish uchun zarur miqdorda xarid qilinishi uchun mas’uliyat va shaxsiy javobgarlik tibbiyot muassasasi rahbari zimmasiga yuklatildi. Mazkur hujjatda farmatsevtika sohasini yanada rivojlantirishga oid yana boshqa ko‘plab vazifalar belgilab berildiki, bu o‘z navbatida, hozirgi kunda soha rivojiga xizmat qilmoqda.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, 2017-yildan e’tiboran sog‘liqni saqlash sohasi huquqiy asoslarining takomillashtirilishi borasida katta ishlar amalga oshirildi. Bunga birgina mazkur yilning oktabr oyiga qadar amalga oshirilgan ishlar misolida ham ko‘rish mumkin. Xususan, ushbu davr mobaynida sohani yanada rivojlantirish, tibbiy xizmatlar ko‘lami va sifatini oshirishga qaratilgan 30ga yaqin Farmon va qarorlar qabul qilindi [3:1]. Keyingi yillarda ham bu boradagi ishlar izchil davom ettirildi. Ushbu davrda amalga oshirilgan ishlarni shartli ravishda ikki qismga bo‘lish mumkin.

1. Soha huquqiy asoslarining bir qismi zamon talablari asosida yangilandi. “Shoshilinch tibbiy yordamni yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, “Dori vositalari va tibbiyot buyumlarini sotish, farmatsevtika faoliyatini litsenziyalash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori va boshqa hujjatlar sohaning prinsipial jihatdan yangicha yondoshuv asosida faoliyat yuritishiga asos bo‘ldi.

2. Sog‘liqni saqlash sohasida huquqiy normativ hujjatlarning bir qismi yangidan tasdiqlandi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, “2018-2022-yillar davrida bolalarda tug‘ma va irsiy kasalliklarni barvaqt aniqlash Davlat dasturi to‘g‘risida” va boshqalarning qabul qilinishi sog‘liqni saqlash tizimida yangi yo‘nalishlarning yanada rivojlanishiga keng yo‘l ochdi.

Yuqorida nomlari keltirilgan Farmon va qarorlarda mavjud kamchiliklar ko‘rsatilishi bilan birgalikda ularni bartaraf etishning prinsipial yangi yo‘nalishlari belgilab berildi. Bu esa o‘z navbatida soha taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqish uchun sharoit yaratdi.

ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. Erkin va farovon, demkratik o‘zbekiston davlatini mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz / O‘zbekiston ovozi., 2016-yil 15-dekabr № 150 (32.209) – son.
2. O‘rozov A. Farzandlari sog‘lom yurtning kelajagi buyukdir/ Xalq so‘zi. 2017-yil 6-yanvar № 4(6698).
3. O‘zA. Tibbiyot sohasidagi islohotlar aholining hayotdan roziligi, el-yurtimiz taraqqiyotiga xizmat qilsin/ Xalq so‘zi. 2017 yil 19-oktyabr № 211(6905).
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoniga sharh/ Xalq so‘zi, 2017-yil 8-fevral. № 28 (6722).
5. O‘zbekiston respublikasi Prezidentining «Shoshilinch tibbiy yordam tizimini jadal takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qaroriga sharh/ http://www.minzdrav.uz/uz/documentation/detail.php?ID=54375.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-apreldagi “Sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2863-son qarori/ Xalq so‘zi. 2017-yil 4- aprel, № 66 (6760)-son.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni //O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida// https://lex.uz/docs/3107036.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni//«O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi to‘g‘risida»// https://lex.uz/docs/221286.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni: «Shoshilinch tibbiy yordamni yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami 2017-yil 22-mart № 11(771)-son. –B. 4-8. 152 – modda.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Tez tibbiy yordam ko‘rsatish tizimi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida// O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami 2009-yil 21-son 250 –modda.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori: «Shoshilinch tibbiy yordam tizimini jadal takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» https://lex.uz/docs/3524650.
12. Prezident: xalqimiz ko‘p asrlik tarixida ne-ne qiyinchliklarni mardonavor yengib o‘tgan // https://www.minzdrav.uz/uz/news/detail.php?ID=58147.
13. Sog‘liqni saqlash vazirligi Jamoatchilik bilan aloqalar bo‘limi. Kasallanganlik holati 1565 tani tashkil qilmoqda // https://www.minzdrav.uz/uz/news/detail.php?ID=58572.
14. https://lex.uz/docs/5077667.
15. https://lex.uz/docs/5434358.
16. https://lex.uz/docs/7247827.